



OTAJONIM, SOG'INDIM IZLARINGIZ...

*Farg'ona viloyati Yozyovon tumani MMTB tasarrufidagi 1-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabining Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Isaqova Maftunaxon Rustamjon qizi.

Hayot yo'limda yurgan har bir qadamingizni eslayman, otajon. Har tong saharlab uyg'onib, ro'zg'or tashvishiga sho'ng'ib ketganingiz, qulog'imda yangrayotgan duolar, qattiq, ammomehrli nigohlaringiz — bularning bari qalbimda iz qoldirgan. Bugun siz yo'q, ammo izlaringiz baribir hayotimda yashab turibdi. U izlar — ibrat, sabr vasadoqat izlari. Hayotimda duch kelgan har bir sinovda, sizdan o'rgangan sabr-toqatimmengamada bo'lmoqda. Bolaligimda: "Farzandlarim, rost so'zli bo'l, halol mehnat qil, hechkimdanqarzdor bo'lma," degan nasihatlaringiz yodimdan chiqmaydi. Men sizni sog'indim, otajon. Ayniqsa kechqurunlar — sokin tun bag'rida, yuragimda siz bilansuhbatlashgim keladi. Siz bilan bir piyola choy ustida gaplashmoqchi bo'laman. O'shaoddiy, ammo quvonchga to'la suhbatlar, bir og'iz kulgili latifangiz ham men uchun bebaho xotirabo'lib qolgan. Otajon, men siz ko'rsatgan yo'ldan borishga harakat qilayapman. Hayotingizning mashaqqatlarini eslab, men ham kuchli bo'lishga intilyapman. Sizning ruhi pokingiz oldidabosh egaman. Menga bergan tarbiyangiz, orqangizdan duo qilgan onajonimiz bilan mengameros bo'ldi. Har bir muvaffaqiyatimda sizning soyangizni, g'amxo'rlicingizni ko'raman. Bugun, sizning yo'qligingizni yuragim sezib turadi, lekin baribir siz mening qalbimdasan, otajon. Har nafasda, har ibodatimda siz bor. Men sizni sog'indim... izlaringizni quchoqlamoqda yuragim...Har bir inson hayot yo'lida yo'lboshchiga, suyanadigan tog'dektayanchga muhtoj bo'ladi. Men uchun bu tayanch — otajonim edi. Yillar o'tgan sari sizningmehriningiz, pand-nasihatingiz va har bir harakatingizdagi donoligingizni yana-da chuqurroqanglab borayapman. Endi esa, har tong sizsiz boshlanar, har kecha esa yuragimda iz qoldiribo'taverar... Sizning borligingiz — biz uchun sukunatdagi ishonch, sokin nigohingiz — bizga jasorat, chuqur



ovozingiz – hayot darslari edi. Hatto sukunatdagi o'tirishingiz ham ko'p gapdan ko'rako'proqnarsani anglatardi. Hayot yo'limda duch kelayotgan sinovlarda sizning aytganlaringiz quloqlarimda yangraydi: "Inson avvalo sabrli bo'lishi kerak, bolam..." Otajon, siz ketgan kun – yuragimda iz qoldirgan kun bo'ldi. Sizning izlaringizni sog'indim: ishga ketayotib ortga qayrilib qaragan nigohlaringizni, bog'dagi sokin yurishlaringizni, hattoozgina jahl bilan aytilgan ogohlik so'zlaringizni. Har bir izda – hayotingizdan qolgan saboq, har bir xotirada – mehringiz aks etadi. Bugun sizsiz o'tgan har kun – menga sabr, matonat va hayot darsidir. Siz menga or-nomus, halollik, mehnatga bo'lgan muhabbatni o'rgatdingiz. Bu meros – sizdan qolgan eng buyukboylik. Endi har bir qadamimda sizning nomingizni oqlashga, munosib farzandingiz bo'lishga harakat qilaman. Otajonim, yuragim sog'inchga to'la... Sizni sog'indim. Siz bilan bir piyola choy ichgan tonglarni, birga sukunatda o'tirgan kechalarni, birga yurilgan hayot yo'llarini. Bu maqolaorqali yuragimdagi sog'inchni ifoda etdim. Yana bir bor aytaman sizni sog'indim Nevaralaringizga siz haqingizda ko'p aytaman.

<<OTA>>

Ota — bir tog', suyanar bel,
So'zsiz himmat, sabr-u amal.
Ostonada jim turadi,
Ko'zlarida butun hayot — karomat, sinal.

Qo'li dag'al — mehnatdan,
Ko'ngli nozik — mehr bilan.
Bir qarashi yetar edi,
Yo'limizni to'g'ri tutsin deb tilagan har dam.

Tunlarda jim, yuragi bedor,
"Bolam omon bo'lsin", — deya charchoqni yeb yotar.
U kulmasa ham, kuladi osmon,
U ketmasa ham, yuragimizda doim bor.



Uning har so‘zi — bir saboq,

Unutmaymiz hech qachon.

Ota — hayot darsligida

Eng birinchi va eng so‘nggi bob.

<<< Otajonim >>>

Sog'inch azobi qiynaydi meni ,

So'zlari shirindur qalbi yumshog'im Men sizni sog'indim ,

sizni otajon Kim sizday ona qizim deb o'ylaydi meni ,

Ayriliq azobi qiynaydi meni .

Men sizni sog'indim,sizni otajon.

Omadim bor edi ,ishlarimda ham ,

Ko'nglim quyosh edi,hislarimda ham

Men sizni sog'indim,sizni otajon.

Ko'rsam ham tushlarimda ham

Der edingiz ona qizim, shahlo ko'zligim,

Men sizni sog'indim ,sizni otajon.

Ko'ksim kerib yurardim,polvon dadam bor deb,

Sizni sog'indim,sizni otajon.

Qo'limda tutgacha,bag'rimga bosgancha suratlaringiz,

Ruxingiz jannatda oromlar olsin,

Sizni sog'indim ,sizni otajon.